



PIRLS TALABLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNING O'QISH VA TUSHUNISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING METODIKASI

Lepesova Mexriban Arislanbay qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat

pedagogika instituti Magistratura bo'limi

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

Yo'nalishi 2-bosqish magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20539987>

ARTICLE INFO

Received: 20th May 2026

Accepted: 21st May 2026

Published: 30th May 2026

KEYWORDS

PIRLS dasturi, o'qish savodxonligi, matnni tushunish, boshlang'ich sinf, tanqidiy fikrlash, matn talqini (interpretatsiya), pedagogik metodika, axborotga oid matn, badiiy matn, o'qish kompetensiyasi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada PIRLS xalqaro baholash dasturi talablari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi va matnni tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy metodikasi yoritilgan. Maqolada o'quvchilarning badiiy va axborotga oid matnlarni qabul qilishi, ma'lumotlarni qidirib topishi, to'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarishi hamda matn elementlarini interpretatsiya (talqin) qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan samarali pedagogik usullar tahlil qilingan. Shuningdek, dars jarayonida o'quvchilarning tanqidiy va mantiqiy fikrlashini oshirish, matn ustida ishlash kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar va metodik tavsiflar keltirilgan.

Global axborotlashuv asrida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini shakllantirish shunchaki mexanik mutolaa qilish emas, balki matn mazmunini anglash, tahlil qilish va undan hayotiy vaziyatlarda foydalana rivojlantirishni anglatadi. Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimi xalqaro baholash dasturlari, xususan, PIRLS talablariga muvofiq transformatsiya qilinmoqda. Biroq, amaliyotda an'anaviy dars metodikasi va xalqaro standartlar o'rtasida muayyan tafovutlar hamon saqlanib qolmoqda.

Uzoq yillar davomida boshlang'ich ta'limda matn ustida ishlash asosan **reproduktiv (qayta tiklovchi)** xarakterga ega bo'lib keldi. Bunda asosiy e'tibor o'qish texnikasi yani tezligi, matn mazmunini ketma-ket so'zlab berish va lug'at ishi bilan cheklanib qolgan. Yangi avlod "O'qish savodxonligi" (4-sinf) darsliklari tahlili shuni ko'rsatadiki, matnlarning janr jihatidan rang-barangligi (badiiy va axborotga oid matnlar) oshgan. Biroq, metodik jihatdan quyidagi tizimli muammolar kuzatilmoqda:

savollar iyerarxiyasining nomutanosibliigi, darsliklardagi savollarning aksariyati matn ichidan tayyor javobni topishga yo'naltirilgan. O'quvchini mulohaza yuritishga, o'z shaxsiy nuqtayi nazarini asoslashga undaydigan savollar ulushi kam;

axborotli (noverbal) matnlar bilan ishlashning yetishmasligi, PIRLS talablari doirasida jadval, diagramma, infografika va xaritalar bilan berilgan matnlarni o'qish ko'nikmasi muhim hisoblanadi. Milliy darsliklarda bunday formatdagi topshiriqlar yetarlicha qamrab olinmagan; **metodik tayyorgarlik darajasi**, o'qituvchilarning aksariyati hamon matnni "qismlarga bo'lib o'qitish va reja tuzish" kabi klassik usullardan voz kecha olmayaptilar. Bu esa o'quvchining matnni yaxlit tizim sifatida idrok etishiga to'sqinlik qiladi. PIRLS xalqaro baholash tizimi esa o'quvchidan ancha murakkabroq kognitiv jarayonlarni talab etadi.

Asosan, PIRLS xalqaro tadqiqotlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish faoliyati ikki asosiy yo'nalish (maqsad) bo'yicha diagnostika qilinadi.

Birinchisi, **adabiy-badiiy matnlar**. Bunda o'quvchi matndagi voqealar rivojini kuzatadi, qahramonlar his-tuyg'ularini his qiladi va badiiy til vositalarini (metofora, o'xshatish) tushunadi.

Ikkinchisi esa, axborotli matnlar. Bunda o'quvchi ilmiy-ommabop matnlar bilan ishlaydi, undagi aniq faktlar, raqamlar, sabab va oqibat bog'liqliklarini hamda jadvallardagi axborotlarni tahlil qiladi.

PIRLS talablariga ko'ra, o'quvchi matnni tushunishning to'rt darajasini egallashi lozim:

1. Diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotni topish;
2. To'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish;
3. G'oyalar va ma'lumotni talqin qilish va uyg'unlashtirish;
4. Kontent, til va matn elementlarini tekshirish va baholash.

An'anaviy darslarda ko'p hollarda faqat birinchi va qisman ikkinchi darajali savollar bilan cheklanilishi, o'quvchilarning interpretatsiya (yashirin manoni topish) qilish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining sust rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. PIRLS mezonlari faqat savol berish bilan cheklanmay, o'quvchidan matnning tarkibiy qismlarini yaxlit sxema sifatida ko'ra olishni talab etadi. Xususan, yuqori darajadagi (3 va 4-darajalar) ko'nikmalarni shakllantirish uchun o'quvchida **matn osti ma'nolarni** uqa olish, muallifning yashirin pozitsiyasini aniqlash va eng muhimi — matndagi axborotni o'zining shaxsiy hayotiy tajribasi bilan solishtirib, mustaqil xulosa chiqara olishi ustuvor hisoblanadi.

Yuqoridagi PIRLS talablariga asoslanib, o'quvchilarning matnni tushunish darajasini PIRLS xalqaro baholash mezonlariga moslashtirish — bu o'qituvchidan darsning har bir daqiqasini kognitiv rivojlantirishga yo'naltirishni, matnni shunchaki o'qish emas, uning tub ma'nolarini anglashga o'tish uchun quyidagi bosqichli ketma-ketlikni qo'llash maqsadga muvofiq:

1. Diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotni topish bosqichi. Ushbu bosqich matn tahlilining fundamenti bo'lib, o'quvchidan diqqatni jamlashni va matn tarkibidagi aniq faktlarni bir-biridan ajratishni talab qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'pincha matnig umumiy mazmunini tushunadilar, biroq detal va detallar orasidagi farqlarga e'tibor bermaydilar. Buning uchun, o'qituvchi matn ustida ishlar ekan, "Skanerlovchi o'qish" metodidan foydalanishi maqsadga muvofiq. Ya'ni, o'quvchiga matnni o'qishdan oldin aniq savol beriladi (masalan: "Qahramon nechanchi yili, qaysi faslda yo'lga chiqqan?"). Bu orqali esa "axborotni qidirib topish" darajasi shakllantiriladi. Bolalarda bu ko'nikmani rivojlantirish orqali ularda axborot oqimidan kerakli faktni xatosiz ajratib olish instinkti tarbiyalanadi.

Bu ko'nikmani yanada mustahkamlashda "Faktlar savatchasi" metodidan foydalanish ham yuqori samara beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun "faktni aniqlash" nisbatan mavhum tushuncha bo'lganligi sababli, mazkur metod jarayonni vizuallashtirish va amaliy harakatga ko'chirishga yordam beradi, bunda "savatchaga solish" harakati shartli hamda o'yinli xarakterga ega bo'lib, sinf sharoitiga ko'ra o'quvchilar topgan aniq faktlarini (qahramon ismi, yil, joy nomi) kichik rangli qog'ozlarga yozib doskadagi savatcha maketiga yopishtirishlari, daftarida chizilgan grafik savatcha ichiga qayd etishlari yoki interaktiv doskada elektron savatchaga joylashtirishlari orqali amaliy bajariladi. Ushbu metod o'quvchidan matnga

qo'shimcha subyektiv ma'no yuklamasdan, faqatgina muallif taqdim etgan real va ochiq ma'lumotlar bilan ishlashni talab qilishi bilan ahamiyatli bo'lib, bu esa bolalarda matndagi ortiqcha tasvirlarga chalg'imasdan, eng muhim ma'lumotlarni ajratib olish va matnda nima haqida gap ketayotganini to'g'ridan-to'g'ri, xatosiz tushunish ko'nikmasini shakllantiradi.

Bu bosqichda yuqorida keltirilgan metodlar asosan raqamlar, sanalar va aniq faktlarga boy bo'lgan axborotli matnlarda yuqori samara beradi. Ushbu metodlarni badiiy matnlarda ham qo'llash mumkin, biroq aynan axborotli matnlar ustida ishlashda ularning amaliy qimmati va samaradorligi sezilarli darajada yuqori bo'ladi.

2. To'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish jarayoni. Matnni tushunishning ikkinchi pog'onasi bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri xulosa chiqarish bosqichida o'quvchi matndagi ochiq yozilmagan, lekin gaplar orasiga yashiringan ma'nolarni topishi kerak bo'ladi. Bu bosqichda o'quvchi matn yuzasidan ichkariga "sho'ng'iy boshlaydi" va voqealar o'rtasidagi yashirin sabab-oqibat aloqalarini qidiradi. Bunda muallif aytmoqchi bo'lgan, ammo aniq yozib qo'ymagan fikrlarni o'zaro bog'lash orqali matndagi bo'shliqlarni to'ldirish va qahramonlarning xatti-harakatlarini tahlil qilish talab etiladi.

4-sinf o'qish savodxonligi darslarida (U.B. Aydarova, N.K. Azizova darsligi asosida) ushbu ko'nikmani rivojlantirish uchun faqatgina matnni o'qitish yetarli emas, balki maxsus interaktiv metodlar va yo'naltiruvchi savollar tizimidan foydalanish lozim.

Matn ustida ishlash jarayonida to'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish ko'nikmasini tizimli rivojlantirish uchun darsda "Izquvar detektiv va uning mantiqiy puzllari" deb nomlangan yaxlit interaktiv zanjirdan foydalaniladi. Bu usul o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan uchta bosqichni qamrab oladi va alohida-alohida metodlar sifatida emas, balki bir-biri mantiqan taqozo etadigan yagona dars ssenariysi sifatida namoyon bo'ladi. Dars davomida ushbu usul quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Dastlab, o'qituvchi o'quvchilarga matndagi ochiq yozilmagan, lekin gaplar orasiga yashiringan ma'nolarni topish uchun "**Detektiv izquvar**" vazifasini yuklaydi. O'quvchilar matnni o'qish jarayonida muallifning har bir ishorasini xuddi yashirin ashyoviy dalildek qidirib topadilar. Masalan, Mahmud Murodovning "Maydondagi bolalar" matnini o'rganishda o'quvchi-detektivlar muallifning uyga qaytishda nega bog' oralab o'tganini va bolalarni tinglagach bosh og'rig'i qanday qilib unutilganini asosiy "yashirin dalillar" sifatida belgilab oladilar. Masalan, quyidagicha savollarni shakllantirish mumkin:

Savol: Hikoya qahramoni (muallif) nima uchun uyga qaytishda aynan bog' oralab o'tishni afzal ko'rdi? (*Yashirin ma'no*: Matnda uning "ishdan qattiq charchab qaytayotgani" va yo'lni biroz bo'lsa ham qisqartirishni, balki tabiat qo'ynida biroz hordiq chiqarishni istagani gaplar orasidan anglashiladi.)

Savol: Matndagi Anvar, Elbek va G'anining orzulari haqidagi gaplardan kelib chiqib, ularning oilasidagi muhit haqida qanday xulosaga kelish mumkin? (*Yashirin ma'no*: Bolalar o'z otalari va bobolarining kasblarini davom ettirishni (quruvchi, ustoz) yoki vatanni qo'riqlashni xohlashyapti. Demak, ularning oilasida kattalarga hurmat, kasbga sadoqat va vatanparvarlik ruhi kuchli.)

Savol: Nima sababdan bolalarning suhbatini tinglagandan so'ng muallifning bosh og'rig'i va charchog'i o'tib ketdi? (*Yashirin ma'no*: Bolalarning begubor, shirin va vatanparvarlik tuyg'ulari bilan yo'g'rilgan orzulari muallifga ruhiy quvvat va kelajakka bo'lgan ishonch berdi, chalg'itdi.)

Topilgan dalillar zudlik bilan ikkinchi bosqichga, ya'ni "Mantiqiy puzllar" chizmasiga ko'chiriladi. Bunda o'quvchi-detektivlar doskadagi puzl shakllarining chap tomoniga matndagi tayyor faktlarni joylashtiradilar, o'ng tomondagi mos keluvchi bo'sh bo'laklarga esa mantiqan kelib chiqadigan yashirin sabablarni yozib, ularni bir-biriga ruhan birlashtiradilar. Misol

uchun, Anvar, Elbek va G'anining kelajakdagi shirin orzulari matndagi ochiq fakt o'laroq birinchi puzl bo'lagiga qo'yilsa, uni to'ldiruvchi va mantiqan yopuvchi ikkinchi puzl bo'lagiga "Bolalarning oilasida kasbga sadoqat va vatanparvarlik ruhi kuchli" degan to'g'ridan-to'g'ri xulosa yoziladi va qismlar zanjirga birlashtiriladi.

Natijada, ushbu metodik zanjir orqali o'quvchi oddiy mexanik o'quvchidan matn tubidagi yashirin g'oyalarni mustaqil ochuvchi o'quvchiga aylanadi.

3. G'oyalar va ma'lumotni talqin qilish va uyg'unlashtirish jarayoni. (Matn va hayot integratsiyasi)

Matnni tushunishning uchinchi pog'onasi bo'lgan g'oyalar va ma'lumotni talqin qilish va uyg'unlashtirish bosqichida o'quvchi matnda yaqqol bayon etilmagan murakkab tushunchalar, yashirin ma'nolar va umumlashtirishlarni ochib berishi kerak bo'ladi. Bu bosqichda o'quvchi matndagi faktlarni o'zining shaxsiy hayotiy tajribasi va o'zlashtirgan bilimlari bilan uzviy bog'lagan holda asar mazmuniga ichkaridan yondashadi. Bunda matnning umumiy mavzusini tushunish, qahramonlarning motivlarini aniqlash, ma'lumotlarni o'zaro qiyoslash va zidlash orqali muallifning matnni yozishdan ko'zlagan asosiy maqsadini to'laqonli anglash va xulosa chiqarish talab etiladi.

4. Kontent, til va matn elementlarini tekshirish va baholash jarayoni. Matnni tushunishning to'rtinchi, eng oliy pog'onasi bo'lgan kontent, til va matn elementlarini tekshirish va baholash bosqichida o'quvchi diqqat-e'tibori matn mazmunini hosil qilishdan uni tanqidiy tahlil qilishga qaratiladi. Bu jarayonda o'quvchi matndan ma'lum ma'noda "ortga chekinib", uning tuzilishi, janri va qo'llanilgan til vositalariga nisbatan mustaqil ekspert sifatida yondashadi. Bunda o'quvchining shaxsiy tajribasi va bilimlariga tayangan holda matndagi ma'lumotlarning aniqligi va to'liqligini baholash, ilgari surilgan talablarni tasdiqlash yoki inkor etish, asar sarlavhasining mavzuga mosligini aniqlash hamda muallifning badiiy mahorati va axborot manbasining ishonchligi yuzasidan asosli tanqidiy munosabat bildirish talab etiladi.

O'quvchilarning matn shakli va mazmunini tanqidiy baholash ko'nikmalari quyidagi uch bosqichli amaliy topshiriqlar zanjiri orqali shakllantiriladi va tekshiriladi:

1. Strukturaviy va til vositalarini baholash topshiriqlari (Muallif mahorati tahlili). Matn sarlavhasi, janri hamda unda qo'llanilgan so'z va iboralarning, til vositalarining o'rinli ekanligi tekshiriladi.

"Maydondagi bolalar" matni misolida: O'quvchilarga: *"Muallif nima uchun hikoyani aynan "Maydondagi bolalar" deb nomlagan? Bu sarlavha matnning markaziy g'oyasini ochib berishda qay darajada muvaffaqiyatli chiqqan? O'z fikringizni voqealar rivoji bilan isbotlang"*, degan savol beriladi. Shuningdek, matn oxiridagi muallifning uyga "qushday yengil" qaytishi tasviridagi badiiy ifodaning o'rinli qo'llanilgani hikoya uslubi nuqtayi nazaridan baholatiladi.

2. Faktik muvofiqlikni aniqlash topshiriqlari (Reallik va ishonchlik tahlili). Matnda berilgan ma'lumotlarning aniqligi va tasvirlangan voqealarning real hayotda sodir bo'lish ehtimoli o'quvchining shaxsiy tajribasi hamda bilimlari yordamida baholanadi.

"Maydondagi bolalar" matni misolida: O'quvchilarga: *"Hikoyada tasvirlangan vaziyat, ya'ni bolalarning qum ichida o'tirib, kelajak haqida bunday jiddiy va vatanparvarlik ruhidagi orzularni qilishi hayotiy haqiqatga qay darajada mos keladi? Insonning og'ir charchog'i va bosh og'rig'i faqatgina bolalar suhbatini eshitish bilan tibbiy jihatdan butunlay o'tib ketishiga ishonasizmi yoki bu muallifning g'oyani yetkazish uchun qo'llagan badiiy to'qimasimi? Matndagi dalillarga tayanib muallif fikrini tasdiqlang yoki inkor eting"*. Bu savollar orqali o'quvchilar matndagi har bir gapni hayot bilan solishtirishni va o'z fikrini matndan olingan dalillar bilan isbotlashni o'rganadilar.

3. Matin g'oyasining ta'siri va muallif maqsadini aniqlash topshiriqlari: Muallif tomonidan ilgari surilgan g'oyalarning kitobxon dunyoqarashiga ko'rsatadigan ta'siri va axborot manbasining ijtimoiy qimmati baholanadi.

"Maydondagi bolalar" matni misolida: "Muallif ushbu matnni darslikka kiritish orqali bugungi kun o'quvchisiga qaysi eng muhim xabarni yetkazmoqchi bo'lgan? Bu g'oya insonlarning hayotga qarashini o'zgartira oladimi?" degan yakuniy savollar o'rta tashlanadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ushbu tizimli topshiriqlar zanjiri an'anaviy savol-javoblardan farq qilib, o'quvchini matndagi ma'lumotlarni shunchaki yodlab olishdan to'xtatadi va uni faol tahlilchiga aylantiradi. Natijada boshlang'ich sinf o'quvchisi har qanday axborotning ishonchliligini hayotiy mezonlar tarozisiga qo'yishni hamda muallif uslubiga mustaqil munosabat bildirishni o'rganadi. Bu esa PIRLS xalqaro baholash tizimining eng yuqori to'rtinchi pog'onasida belgilangan ko'nikmalarni o'quvchilarda amaliy va o'lchovli shaklda shakllantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ismailov, A. A. va boshqalar. (2020). **Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash (PIRLS dasturi bo'yicha metodik qo'llanma)**. Toshkent: "Ta'lim inspeksiyasi".
2. Mullis, I. V. S., Martin, M. O., Foy, P., & Hooper, M. (2017). **PIRLS 2016 International Results in Reading**. Chestnut Hill, MA: TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College.
3. Mullis, I. V. S., & Martin, M. O. (Eds.). (2019). **PIRLS 2021 Assessment Frameworks**. Chestnut Hill, MA: Boston College.
4. Matchonov, S. (2018). **Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darslarini innovatsion tashkil etish**. Toshkent: "O'qituvchi".
5. Qosimova, K., Matchonov, S., Gulyamova, X., Yo'ldosheva, Sh., Sariyev, Sh. (2014). **Ona tili o'qitish metodikasi**. Toshkent: "Nosir".